

Tibbiyot Sohasi Pedagog Kadrlarining Axborot Texnologiyalari Muhitida Kasbiy Kompetentligini Rivojlantirish

Lapasov Ulug‘bek Lutfullayevich ¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot sohasi pedagog kadrlarining axborot texnologiyalari sharoitida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zaruriyati va asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Pedagoglarning raqamli savodxonligi, elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish, masofaviy ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi muhim jihatlar yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy tibbiy ta‘limning sifatini oshirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta‘lim, axborot texnologiyalari, pedagog kadrlar, kasbiy kompetentlik, raqamli savodxonlik, elektron ta‘lim, innovatsion texnologiyalar.

Kirish: Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi har bir soha vakilidan, ayniqsa tibbiyot sohasi pedagog kadrlardan, o‘z kasbiy faoliyatida raqamli vositalardan samarali foydalanishni talab qilmoqda. Tibbiy ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarga sifatli bilim berish, o‘qituvchilarning esa o‘z malakasini oshirish imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Pedagog kadrlarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilim va ko‘nikmalari ularning kasbiy kompetentligini shakllantiradi. Bu jarayonda quyidagi asosiy yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi:

Axborot texnologiyalari bo‘yicha asosiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish

Tibbiyot pedagoglari kompyuter savodxonligini, internet resurslaridan samarali foydalanishni, tibbiy ma‘lumotlar bazalarini o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi zarur.

Elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish

Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, videodarslar va interaktiv platformalar tibbiy ta‘lim samaradorligini oshiradi. O‘qituvchilar bu imkoniyatlardan o‘z faoliyatida keng foydalanishi kerak.

Masofaviy ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish

Onlayn kurslar, webinarlar va videokonferensiyalar orqali doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarni oshirish pedagoglarning zamonaviy talablariga javob beradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish

Elektron testlar, interaktiv o‘quv dasturlari va sun‘iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish va rivojlantirish imkoniyatlari oshadi.

Kompetensiya keng ma‘noli tushuncha bo‘lib, uning mazmun va mohiyati olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xorijiy tadqiqotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” atamalarining ko‘plab talqinlari berilgan. Masalan, R.Jakendof-“kompetensiya-u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlikni anglatadi” deydi. “Kompetensiya” (lotincha compete-erishaman, mos kelaman, to‘g‘ri kelaman) aniq tashkilotga yoki lavozimdagi shaxsga qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan taqdim etilgan vakolatni bildiradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta‘lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi



J.Vinterton va D.Delamare-Le [1] kompetensiyani ma'lum bir faoliyat talab qiladigan standart xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlikni esa ushbu talab (standart) ga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi, - deb tavsiflaydilar.

A.Verbiskiy [2] va O.Iskandrovalar [3] "kompetensiya" bu-inson tomonidan u yoki bu faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, shaxsiy sifatlari, bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo'lgan va amalga oshgan insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy-ahloqiy sifatlari rivoji bilan tavsiflanuvchi kompetensiyasi,-deb ta'riflaganlar, A.S.Belkin kompetensiyani ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalar, kompetentlikni esa, kompetensiyani samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlarni majmuasi sifatida ta'riflagan.

Respublikamiz ta'lim tizimiga ushbu tushuncha 1990-yil boshlarida kirib keldi. Mutaxassislar tomonidan, u turlicha, masalan, J.Jalolov tomonidan "layoqat", T.Sattorov esa "omilkorlik", pedagogika nazariyasi va tarixi aks etgan manbalarda "mahorat" kabi tushunchalar bilan nomlangan. Quyida mamlakatimiz olimlari tomonidan berilgan ta'riflarni keltiramiz.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da keltirilishicha: "kompetensiya (lot.competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) ma'nosini anglatib, muayyan davlat organi (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjati bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohada bilimlar, tajriba demakdir". Yuqorida keltirilgan tavsiflarni inobatga olib umumlashtirsak, kompetensiya – bu ma'lum bir sohada samarali ishlash uchun zarur bo'lgan va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shaxsning turli layoqatlari va xususiyatlarining yig'indisidir.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham ushbu atamaga quyidagicha ta'rif beriladi: "kompetensiya (lotincha competere–layoqatli, munosib bo'lmoq) muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat; shaxsning biror bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi"dir. Kompetensiya natijadorlikni ta'minlaydigan algoritmning inson imkoniyatlari orqali namoyon bo'lishi hamda insonning mutaxassis sifatidagi maqsadga yo'naltirilgan va uning imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan harakat faoliyatidir.

B.X.Xodjaevning fikriga ko'ra, kompetensiya-egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir.

K.J.Risqulova fikriga ko'ra, "kompetensiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa – shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezonini samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi".

Insonning bilish faoliyati natijalarini tizimlashtirish, uning tushuncha va g'oyalar ko'rinishida mavjud bo'lgan bilimlardan farqli o'laroq, kompetensiya faqat amalda aniqlanadi. Umuman olganda, kompetensiya mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llashdir, yetishmayotgan bilimlarni ta'minlash qobiliyati, o'z imkoniyatlarini namoyon etish bilan xarakterlanadigan zarur bilim, malaka, ko'nikmalarning hosilasidir.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiyani quyidagi an'anaviy tasniflari qayd etilgan:

- javobgarlikni o'z zimmasiga olish, hamkorlikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;
- madaniyati, tili va dinidan qat'iy nazar boshqa insonlar bilan yashashga, ularni tushunishga, ularga yordam berishga va o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigan kompetensiyalar;



- kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo'lgan yozma va og'zaki muloqotga egalikni aniqlovchi kompetensiyalar;
- axborot jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo'lish va ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash).

Shundan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonida kompetensiyalarning ikki asosiy turi: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo'linadi. Tayanch kompetensiyalar insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o'z o'rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'sicha raqobatbardosh bo'la olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi: kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik kabi kompetensiyalardir.

Professor N.Muslimov xususiy kompetensiyani-ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida aynan ushbu fanning o'ziga tegishli, o'ziga xosligi va fan mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli kompetensiyadir degan fikrni bildiradi. Jumladan, ingliz tili o'rganishda til o'rganuvchilarda nutqiy, lingvistik, leksik, ijtimoiy-madaniy yoki diskurs hamda strategik kompetensiyalarni shakllantirish talab etiladi.

Qayd etish kerakki, tayanch va xususiy kompetensiyalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldirgan holda shakllantirib borilsagina samarali natija beradi.

Shiddatli globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Yuqorida "kompetensiya" tushunchasi mohiyatiga yuzlagan bo'lsak, endi navbat "kompetentlik" tushunchasiga. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi [10]da kompetentlik atamasi lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, "erishayapman", "munosibman" degan ma'noni anglatadi deb ta'riflangan hamda A.Belkin izohiga ko'ra u ma'lum sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi. Jumladan, G.Garfinkel kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma va tajribalari, ijtimoiy-professional, ya'ni jamiyatda egallagan kasbiy mavqeiga mosligi, o'z lavozim vazifalarini bajarish, unga doir muammolarni hal qilishga qodirligi deb tushunadi. Uning bu boradagi mulohazasidan kompetentlik shaxsning muayyan bilim va malakalarga egaligi hamda u yoki bu vaziyatda samarali ish tutishi nazarda tutilmoqda.

Xulosa: Tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning axborot texnologiyalari muhitida kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Shu orqali nafaqat ta'lim sifati oshiriladi, balki raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega mutaxassislar tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gegenfurtner A. Bernhard Schmidt-Hertha and Paul Lewis. Digital technologies in training and adult education. International Journal of Training and Development 24:1. 17 February 2020. ISSN 1360-3736. doi: 10.1111/ijtd.12172.
2. Kuzu, Abdullah, Assist. Prof. Dr. "Views of Pre-Service Teachers on Blog Use for Instruction and Social Interaction" Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE/July 2007 Volume: 8 Number: 3 Article: 2. Eric. 21 Mar 2008.
3. Marta Ruiz-Corbella. Philosophy of Education and Education in Competences in the context of the European Higher Education Area // Philosophy of Education. 2011. №4 (37). – P. 5-17.

